



FORMATION OF SOCIETY

Rakhmatjon Akhmedov

Lecturer

University of Business and Science

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Society, community, family, village, state, social norms, Plato, Aristotle, justice, fair person.

Received: 20.08.24

Accepted: 22.08.24

Published: 24.08.24

Abstract: This article discusses the society and the process of its formation. In the emergence of society, the views of ancient Greek scientists on the organization of society were analyzed.

JAMIYATNING SHAKILLANISHI

Raxmatjon Axmedov

O'qituvchi

University of Business and Science

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlari: Jamiyat, jamoa, oila, qishloq, davlat, ijtimoiy normativlar, Platon, Aristotel, adolat, adolatli kishi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat va uning tashkil topish jarayoni haqida fikr yuritiladi. Jamiyat paydo bo'lishida qadimgi yunon olimlarining jamiyatning tashkil topishi borasidagi qarashlari taxlil qilingan.

ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВА

Рахматжон Ахмедов

преподаватель

Университет бизнеса и науки

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Общество, община, семья, деревня, государство, социальные нормы, Платон, Аристотель, справедливость, справедливый человек.

Аннотация: В данной статье рассматривается общество и процесс его формирования. В возникновении общества проанализированы взгляды древнегреческих учёных на организацию общества.

KIRISH

Jamiyat (arabcha umumiy) – tabiatning bir qismi, borliqning alohida shaklini ifodalaydigan falsafiy tushuncha; odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o‘rtasida amal qiladigan ko‘plab munosabatlar majmuasi, o‘zida moddiylik va ma’naviylikni, obyektivlik va subyektivlikni, tabiiylik va ijtimoiylikni mujassamlashtiradigan tushuncha. O‘zbek tilining izohli lug‘atida jamiyatga shunday tarif berilgan: *“Tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichida moddiy boylıklar yaratishning muayyan usullari va muayyan ishlab chiqarish munosabatlari bilan xarakterlanadigan ijtimoiy munosabatlar majmui”*, *“Biror maqsadda tuzilgan ixtiyoriy birlashma, ijtimoiy tashkilot”*, *“Ma’lum doira, davra kishilari, ahllari”*.

ASOSIY QISM

«Jamo» va «jamiyat» atamaları anglatgan ma’nolariga ko‘ra yaqindir. Har ikki so‘z arabcha «jam’a»dan yasalgan bo‘lib, kishilarning turli darajada va maqomda olingan umumiyliги ni anglatadi. Agar «jamiyat» deyilganda keng ma’noda oldingi paragraflarda ko‘rsatib o‘tilganidek, kishilarning birgalikdagi manfaatlari va kelishuvi asosida maqsadga muvofiq oqilona tashkil etilgan birgalikdagi faoliyati ifodasi tushunilsa, «jamo» tushunchasida umumiy kelib chiqish, til, taqdir va qarashlar bilan bog‘liqlik o‘z aksini topadi. Oila, xalq va hokazolar ayni shunday jamoalardir. Jamiyat g‘oyat murakkab ijtimoiy tizim bo‘lib, u odamlar o‘rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy va hokazo munosabatlarning, tarixan tarkib topgan oila, jamoa, millat, din, davlat, axloq va hokazolarning majmuidir.

Jamiyatning muhim belgilarifdan biri bu odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ijtimoiy tizim va tashkilotlarning to‘plami, ularning hamkorlik va o‘zaro ta’siri asosida shakllanishi xisoblanadi. Jamiyatning tashkil topishi to‘g‘risida Antik davr mutaffakirlaridan Platon va Aristotel o‘zini asarlarida chuqur mulohaza qilishgan. Platon o‘zining “Davlat” kitobida insonning muayyan yaxlit birlashmaga birlashishning shart sharoitlari haqida fikr yuritadi. Jamiyatni asosini tashkil qiladigan fuqarolarva ularning fazilatları haqida yozar ekan adolatli kishiga alohida urg‘u beradi. Platon fikricha *do‘stlarga foyda dushmanlarga zarar yetkazish adolatdir* deb ta’kidlaydi. Shu tariqa jamiyatning asosini tashkil qiladigan insonlarning o‘zara bir muhit yoki bir makonda tinch osayishta yashash va faoliyat olib borishi uchun kishi eng avvalo adolatli bo‘lmog‘i kerakligini ta’kidlaydi.

Jamiyat keng ma’noda, turli xil ijtimoiy strukturalar, guruhlar va institutlarni o‘z ichiga oladi. Jamiyat tushunchasi turli xil madaniyatlar, dinlar, iqtisodiy va siyosiy tizimlarga bog‘liq holda turlicha bo‘lishi mumkin. Jamiyat shakllanish va rivojlanish faoliyatida o‘ziga xos bo‘lgan bir qancha xususiyatlarni mujassam etadi. Jumladan:

- Tashkil topish jarayoni va tuzilishi jamiyatning asosiy xususiyati sifatida namoyyon bo‘ladi. Platonning davomchisi bo‘lgan Aristotel o‘zining qarashlarida jamiyatning vujudga

kelishini tabiiy deb tushuntiradi. Jumladan *kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy ravishda vujudga kelgan jamoa oila deyiladi. Oilalar esa qishloqlarga birlashadi. 20 ta qishloqdan tashkil topgan jamoa esa davlat deb tushuntiriladi. Bularning hammasi shuni ko'rsatadiki jamiyat tashkil topish jarayoni insonlarning tabiiy tarzda amalga oshishini ko'rsatadi.* Jamiyat o'z ichida ijtimoiy tartib va tuzilishga ega. Bu tuzilish odatda qonunlar, qoidalar, va urf-odatlar bilan belgilanadi.

- Ijtimoiy normativlar. Jamiyatda yashovchi odamlar bir-biriga nisbatan muayyan ijtimoiy normativlarga rioya qilishadi, bu normativlar odatda madaniyat, din yoki qonunlar asosida shakllanadi. Shu o'rinda yana platonga murojat qilsak: *"Har bir kuch o'z foydasiga qonunlar o'rnatadi. Demokratiya – demokratik qonunlar. Despotik zulimga asoslangar – zulm qonunlarini"*, deb tushuntiradi. asnosda jamiyaning yana bir muhim belgisi shakllanadi. Bu – madaniyat. Madaniyat - jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, u odamlarning hayot tarzini, urf-odatlarini, qadriyatlarini va e'tiqodlarini o'z ichiga oladi. Jamiyatning faoliyat olib borishi va yashashi uchun mavjudlikni talab qiladigan muhim omillardan biri bu - iqtisodiy faoliyatdir. Jamiyat iqtisodiy tizimlarga asoslanib ishlaydi. Bu tizimlar mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Jamiyatning rivojlanish davomida bir qancha tarkibiy qismlardan tashkil topishini ko'rishimiz mumkin. Bular:

- Oila. Jamiyatning eng asosiy hujayrasi hisoblanadi. Oila odamlarning bir-biriga nisbatan ijtimoiy, iqtisodiy va hissiy aloqalarini belgilaydi. Umuman olganda oila butun insoniyat tarixidan to hozirgacha olib qaraydigan vaqtlar oralig'idagi birinchi jamiyat sifatida qabul qilsa bo'ladigan eng asosiy kishilar uyushmasi hisoblanadi. Tabiatan inson eng birinchi insonlar bilan o'zaro muloqotga va manfaatli munosabatlarga kirishadigan va shaxs o'zini birinchi marta o'zini to'liq his etadigan maskan xisoblanadi.

- Kichik ijtimoiy guruhlar. Inson shaxs sifatida shakllanish jarayonida asta sekin oilaviy munosabatlardan keyin boshqa kichik ijtimoiy guruhlar bilan muloqat va ozaro hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Aynan o'sha jarayonlar asosida insonlarning o'zaro birikishini jamiyat sifatida shakllanishidagi asosiy tarkibiy qism sifatida qarashimiz mumkin. Bunday kichik birikishlar umumiy manfaatlar, maqsadlar yoki qadriyatlar asosida shakllanadi. Masalan, do'stlar guruhlari, ishchi jamoalari, diniy jamoalarni kiritishimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mukunki jamiyat kishalardan tashkil topgan murakkab birlashma sanaladi uning tashkil topishi rivojlanishi harakat dinamikasini qadimgi yunon olimlaridan Platon va Aristotel qarashlariga qarashimiz mumkin. Bunday kichik birikishlar umumiy manfaatlar, maqsadlar yoki qadriyatlar asosida shakllanadi. Masalan, do'stlar guruhlari, ishchi jamoalari, diniy jamoalarni kiritishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. «Государство» Платон Академический проект 2014
2. Сочинения Аристотел Москва 1983
3. “Shaxs va jamiyat”, Shodmonqul Azizov T.: “Niso Poligraf” 2016
4. “Fuqarolik jamiyati asoslari” darslik Toshkent 2016
5. www.izoh.uz
6. www.oyina.uz
7. www.wikipedia.uz